

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI**

PULATOV SIROJIDDIN NURITDINOVICH

**18-19 YOSHDAGI FUTBOLCHILARNING HARAKAT FAOLLIGINI
NAZORAT QILISH ASOSIDA ULARNING MAXSUS CHIDAMLILIGINI
TAKOMILLASHTIRISH USLUBIYATI**

**13.00.04- Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy
tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Pulatov Sirojiddin Nuritdinovich

18-19 yoshdagi futbolchilarning harakat faolligini nazorat qilish asosida ularning maxsus chidamliligini takomillashtirish uslubiyati.....3

Пулатов Сирожиддин Нуритдинович

Методика совершенствования специальной выносливости 18-19 летних футболистов на основе контроля двигательной активности.....31

Pulatov Sirojiddin Nuritdinovich

Methodology of special endurance improvement for 18-19 years old football players based on motor activity control.....61

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....65

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI**

PULATOV SIROJIDDIN NURITDINOVICH

**18-19 YOSHDAGI FUTBOLCHILARNING HARAKAT FAOLLIGINI
NAZORAT QILISH ASOSIDA ULARNING MAXSUS CHIDAMLILIGINI
TAKOMILLASHTIRISH USLUBIYATI**

**13.00.04- Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy
tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.2.PhD/Ped2635 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) ilmiy kengashning veb-sahifasida www.jtsu.uz hamda “Ziyonet” Axborot-ta’lim portali manzilida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Artikov Askar Akbarovich pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Rasmiy opponentlar:	Kochkarov Atabek Axmatvaevich pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent Talipdjanov Asqar Imamjanovich pedagogika fanlar nomzodi, professor
Yetakchi tashkilot:	Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universitet

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil “__” _____ soat ____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Metallurglar ko‘chasi, 15-uy. Tel.:(0-370) 717-17-79, 717-27-27, faks: (0-370) 717-17-76, Veb-sayt: www.uzdjtsu.uz. e-mail: uzdjtsu@uzdjtsu.uz. O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti “Madaniyat saroyi” kichik majlislar zali, 2-qavat ilmiy kengash zali).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Axborot resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi, 19-uy.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “__” _____ kuni tarqatildi.
(2024-yil “__” _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi)

R.M.Matkarimov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, p.f.d. (DSc), professor

Sh.Sh.Gaziyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, p.f.b.f.d. (PhD), dotsent

J.M.Ishtayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, p.f.d (DSc), dotsent

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Dunyo miqyosida futbol sport turi tobora ommalashib, mashg'ulotlarni rejalashtirish, yuqori malakali futbolchilarni tayyorlashda maxsus jismoniy sifatlarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Bu futbolchilarining jismoniy tayyorgarlik darajasini doimiy o'sib borishi bilan bog'liq va shu orqali maydondagi harakatlar ko'lami kengayib bormoqda. Sportchilarni jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligi holati bo'yicha ularning harakat faolligini nazorat qilish usullari tayyorgarlikning turli bosqichlarida rejalashtirishni imkoniyati xalqaro darajadagi mutaxassislar e'tiborini o'ziga tortmoqda. Jismoniy sifatlarni rivojlantirish futbol sport turida yuqori natijalarga erishish uchun asosiy omillardan hisoblanadi, shu sababli futbolchilarni chidamkorligini oshirish, yuqori sport natijalarini va imkoniyatlarini ko'rsatish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Jahon futbolida yosh sportchilarni texnik-taktik jihatlarini tadqiq qilish, futbolchilarning jismoniy, psixologik va funksional ko'rsatkichlarini yaxshilash bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Futbol sohasida to'plangan ko'p yillik nazariy va amaliy tajribalar asosida turli noan'anaviy vositalarni mashg'ulotlarda qo'llashga qaratilgan majmuaviy usullar hamda ularni nazorat qilish imkoniyatlari amaliyotga tadqiq etilmoqda hamda futbolchilarning tayyorgarlik davri bosqichlarida chidamkorlikni ustuvor rivojlantirish asosida futbolchilarni jismoniy tayyorgarligini oshirish, mashg'ulot vositalari va usullarini doimiy takomillashtirish zarur bo'lib, mazkur muammo bo'yicha turli tajribalar olib borishga ehtiyoj sezilmoqda. Ko'pgina ilmiy izlanishlarda mashg'ulot jarayonining turli bosqichlari uchun mashg'ulot rejasiga muvofiq vosita va usullarni ishlab chiqish, harakat faolligini oshirish, texnik-taktik imkoniyatlarini yaxshilash masalalari keng o'rganilganligiga qaramasdan ko'p yillik tayyorgarlik tizimida yosh futbolchilarni maxsus jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish uslubiyati yetarlicha ochib berilmagan.

Respublikada yoshlar futbolidan kattalar futboliga o'tish davri ekanligini inobatga olib, ko'pgina futbolchilarda jismoniy qobiliyatlarning rivojlanish darajasi barqarorlashish kuzatilganligi sababli, ular yuqori malakali sportchilarga qo'yiladigan talablarga moslasha olmayotganligi kuzatilmoqda. Shu sababli hozirgi vaqtda sport takomillashuvi bosqichidagi futbolchilar bilan ishlaydigan mutaxassislar oldida ziddiyat yuzaga kelmoqda. Bir tomondan, maxsus jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirishga qaratilgan mashg'ulot vositalari hajmini oshirib borishi zarur. Boshqa tomondan, jismoniy tayyorgarlik, jumladan 18-19 yoshli futbolchilarning maxsus chidamliligini oshirishga yordam beruvchi talab darajada ishlab chiqilgan hamda ilmiy asoslangan mashg'ulot dasturlari yetarlicha mavjud emas. "Mamlakatimizda futbol bilan shug'ullanishga sharoitlar yaratish, futbolchilar mashg'ulotlarini samarali tashkil etish va ularni tayyorlashda innovatsion texnologiyalarni joriy qilish"¹ muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 dekabrda O'zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-5887-sonli Farmoni.

yuqori malakali futbolchilarni tayyorlash, ularning maxsus jismoniy tayyorgarligini oshirish dolzarb masala ekanligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-dekabrda "O'zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5887-sonli Farmoni, 2018-yil 16-martda "Futbolni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3610-sonli va 2023-yil 7-aprelda "Ommaviy va professional futbolni har tomonlama rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ115-sonli Qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning I."Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishlari doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mahalliy olimlardan I.A.Koshbaxtiyev, R.I.Nurimov, Sh.T.Iseyev, A.I.Talipdjanov, R.A.Melziddinov, I.X.Qutlimuratovlarning tadqiqot ishlarida futbolchilarning jismoniy tayyorgarligi, umumiy va tayyorgarlik turlari, jumladan, chidamkorlik sifatini rivojlantirishga oid ma'lumotlar yoritilgan.² Ular o'z izlanishlarida turli yoshdagi futbolchilar mashg'ulotlarini takomillashtirish va samaradorligini oshirish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazishgan, biroq 18-19 yoshli futbolchilarning jismoniy tayyorgarligi, ularning maxsus chidamkorligi va uni rivojlantirishga oid ma'lumotlar to'liq yoritilmagan. Bu esa futbolchilarda maxsus chidamlilik darajasini rivojlantirish hamda takomillashtirish muammosi dolzarbligini belgilab beradi.

Ilmiy adabiyotlarda futbolchilarni tayyorlash uslubiyati, ularni takomillashtirish, futbolchilar mashg'ulotlarini optimallashtirish bo'yicha MDH mutaxassislari, jumladan, T.S.Taneyev, M.A.Godik, I.N. Novokshyenov, A.A. Suchilin,

A.A Nikolayev, V.G.Semyonovlar tomonidan ham o'rganilgan biroq, yosh futbolchilarning, aynan 18-19 yoshli futbolchilarning chidamkorlik sifatini rivojlantirish va takomillashtirishda zomonaviy texnologiyalardan foydalanish masalasi to'liq yoritib berilmagan³.

² Кошбахтиев И.А., Нуримов Р.И. Программирование подготовки футболистов высокой квалификации. Ташкент. 2005. –120 с; Нуримов Р.И., Футбол назарияси ва услубияти Дарслик. Илмий Техника ахборот Пресс нашриёти, 2015.-364 б; Исеев Ш.Т., Ахматджанов У.М., Талипджанов А.И. Физическая подготовка футболистов. Ташкент, 2018. — 172 с; Исеев Ш.Т. Анализ эффективности соревновательной деятельности футболистов в зависимости от уровня их физической подготовленности//Респуб. научно-практическая конференция «Тенденции развития современного футбола: проблемы и пути их решения». Ташкент. 2020. С. 6-11; Мельзиддинов Р.А. Совершенствование специальной физической подготовленности квалифицированных футболистов в межигровых циклах. Автореф. ... докт.филос. (PhD) по пед. наукам. Чирчик. 2021. – с 25; И.Х.Кутлимуратов Чидамкорликни устувор ривожлантириш асосида футбол хакамларининг махсус жисмоний тайёргарлигини такомиллаштириш Монография (PhD) Чирчик -2023. - б 127;

³ Танеев Т.С. Планирование тренировочных микроциклов по развитию общей и специальной выносливости футболистов 16-17 лет: автореф. дис. ... канд. пед. наук: 13.00.04 / Т.С. Танеев. — М., 1995. — 24; Годик, М.А. Физическая подготовка футболистов / М.А. Годик. -М.: Терра-Спорт, Олимпия Пресс, 2006. — 272 с; Новокщенов И.Н. Основы специальной физической подготовки футболистов в зависимости от игровой специализации. — Волгоград, 2003. - 137 С; Сучилин А.А., Кудинов А.А. Комплексное развитие физических способностей и технико-тактических

Xorijiy mutaxassislardan M.A.Abdelkader, J.Bangsbo, W.M.Elmosri, B.Peitersen kabi olimlar tomonidan futbolchilarning chidamliligini rivojlantirishga oid to'liq ma'lumotlar keltirilgan. Lekin 18-19 yoshli futbolchilar kontingentida mazkur muammoni to'liq ilmiy asoslashga doir ma'lumotlar yetarli darajada tadqiq etilmagan⁴.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, 18-19 yoshli futbolchilar tomonidan mashg'ulot jarayonida anaerob-glikolitik zonada bajariladigan faol harakatlanishlar hajmlari maxsus chidamlilik darajasining futbolchilar texnik-taktik harakatlari samaradorligi bilan o'zaro bog'liqligi to'g'risida ma'lumotlar juda kam. Muammoning yetarlicha ishlab chiqilmaganligi hamda 18-19 yoshli futbolchilarda maxsus chidamlilik darajasini rivojlantirish hamda takomillashtirishga qaratilgan dasturiy vositalar va metodikani tasdiqlash uchun tajriba ma'lumotlarning yetishmasligi tufayli ushbu muammo dolzarbligicha qolmoqda.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining V-17/3 "Futbol bo'yicha professional futbol klublari va milliy terma jamoalar uchun zaxirani samarali tayyorlashni ta'minlash maqsadida ilmiy-uslubiy qo'llanmalarni tayyorlash" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi 18-19 yoshli futbolchilarning harakat faolligini nazorat qilish asosida ularda maxsus chidamlilik darajasini baholash va uni takomillashtirish dasturlarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

zamonaviy usullar orqali turli ampuadagi futbolchilarning funksional holatini tahlil qilish va maxsus chidamliligi darajasini aniqlash;

18-19 yoshli futbolchilarda real vaqt rejimida futbolchilarning mashg'ulot va musobaqa faoliyati jarayonida ularning faol harakatlanishlar hajmlari va futbolchilarning maxsus chidamliligi darajasini takomillashtirishga qaratilgan yuklama me'yorlarini tahlil qilish;

innovatsion kompyuter texnologiyalardan foydalanish asosida o'yinchilarning maxsus chidamliligi darajasi va texnik-taktik harakatlarni bajarish samaradorligini aniqlash;

18-19 yoshli futbolchilarning maxsus chidamliligi darajasini takomillashtirish dasturini ishlab chiqish va tatbiq qilish;

Tadqiqotning ob'yekti sifatida O'zbekiston superligasida ishtirok etayotgan 18-19 yoshli futbolchilarning o'quv mashg'ulot jarayoni olingan.

характеристик у юных футболистов. Теория и практика физ. культуры. №11, 2017. С.101-102; Николаев А.А., Семёнов В.Г. Развитие выносливости у спортсменов. – М., Спорт. 2017. -144 с;

⁴ Abdelkader M. A., Elmosri W.M. Effect of Three Protocols of Warming up Involving Stretching on the Kinematic Performance of Horizontal Jumping, Agility and Speed for Soccer Players. American Journal of Sports Science. Volume 4, Issue 3, May 2016. — P. 55-60; Bangsbo J., Peitersen B. Football conditioning a modern scientific approach periodization | seasonal training | small sided games. 2016 by Soccer Tutor.com. 159 p;

Tadqiqotning predmetini 18-19 yoshli futbolchilarning maxsus chidamliligini rivojlantirish vositalari, metodlaridan foydalanish jarayonini tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ilmiy-metodik adabiyotlar tahlili, anketa soʻrovi, sportchilarning fiziologik holatlarni baholash metodikalari, pedagogik kuzatuvlar va testlash, pedagogik tajriba, matematik statistika kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

nafas olish va funksional holatini innovatsion vositalari orqali hamda informatsion tahlili koʻrsatkichlarini korreksiyalash hisobiga turli ampluadagi 18-19 yoshdagi futbolchilarning maxsus chidamlilik darajasini oshirish imkoniyatlari kengaytirilgan;

standart yuklamaga nisbatan harakat reaksiyani oshirishga qaratilgan maxsus mashqlarni (ixtisoslashgan va ixtisoslashmagan) amplualar boʻyicha taqsimlash hisobiga 18-19 yoshdagi futbolchilarda tayyorgarlik davri mikrosikllarida qayta tiklanish holati barqarorligini taʼminlash imkoniyatlari oshirilgan;

18-19 yoshdagi futbolchilarning texnik-taktik faolligini taʼminlovchi chidamlilik, kuch va tezkor kuch qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan tiklanish mashqlarini shiddat zonalarini xususiyatlari boʻyicha taqsimlash hisobiga yuklamalarni qoʻllash uslubiyati xaddan tashqari va uzoq muddatli zoʻriqishni kamaytirish imkoniyati takomillashtirilgan;

18-19 yoshdagi futbolchilarning oʻquv mashgʻulot jarayonida chidamlilikka yoʻnaltirilgan mashqlarni taʼsir etish darajalariga koʻra aerob, aralash, anaerob–glikolitik, anaerob–alaktat rejimidagi mashgʻulotlarni turli variantlarda qoʻllash orqali yuklamalarning hajm va meʼyorlari optimallashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

yillik tayyorgarlik siklida maxsus chidamlilik darajasini takomillashtirishga qaratilgan mashgʻulot yuklamalari kattaliklarining tahlili uni takomillashtirish dasturlarini optimal variantlari ishlab chiqilgan.

18-19 yoshli futbolchilarning ham oʻyin vaqtidagi, ham mashgʻulotlar davomidagi 5 ta tezlik zonasi hamda 5 ta shiddat zonasida faol harakatlanishlari toʻgʻrisida yangi daliliy maʼlumotlar olindi, bu maxsus chidamlilik darajasini baholash va nazorat qilish imkoni kengayishiga sabab boʻlgan.

futbolchilarning maxsus chidamliligini rivojlantirish va takomillashtirish metodikasi boshlangʻich bosqichi: 1,5-2 oy mobaynida kuchga yoʻnaltirilgan yuklamalarni va keyingi bosqichda oksidlovchi mushak tolalarining shakllanishiga yordam beruvchi aerob-anaerob yoʻnalishidagi yuklamalar ilmiy asoslangan;

maxsus chidamlilikning rivojlanish darajasining turli darajadagi oʻyinlarda futbolchilarning texnik-taktik harakatlarini bajarish samaradorligi bilan oʻzaro bogʻliqligi aniqlangan. Jumladan, tavsiya qilingan dasturlar “PFC Lokomativ” yoshlar jamoasi va “PFC Olimpik” jamoalarining tayyorgarligiga joriy qilingan. Natijada “PFC Lokomativ” jamoasi mamlakat chempionatida chempionlikni

qo‘lga kiritgan bo‘lsa, asosni “PFC Olimpik” jamoasi tashkil qiluvchi O‘zbekiston Olimpiya terma jamoasi Parij-2024 yozgi olimpiadasiga yo‘llanmani qo‘lga kiritdi; futbolchilarning maxsus chidamliligi darajasini takomillashtirishga qaratilgan dasturlarning samaradorligi, ulardan U-18 terma jamoasini “CAFA” turniri, Osiyo futbol konfederatsiyasi Kubogining saralash o‘yinlariga tayyorlash hamda O‘zbekiston birinchiligasida ishtirok etayotgan “AGMK” hamda “Bunyodkor” jamoalarining 18-19 yoshli futbolchilari tayyorgarligi jarayonida foydalanilganligi bilan tasdiqlangan;

innovatsion kompyuter texnologiyalari, 18-19 yoshli futbolchilar maxsus chidamlilik darajasini pedagogik, tibbiy-biologik nazorat qilish metodlaridan foydalanish o‘quv-mashg‘ulot jarayonini optimallashtirishga imkon yaratgan hamda uning samaradorligi oshirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. O‘rganilayotgan muammoga kompleks yondashuv; tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari yetarlicha tadqiq etilganligi va asosiy nazariy qoidalarning bir-biriga zid emasligi; ularning zamonaviy sportning rivojlanish tendensiyalariga mosligi, tadqiqot maqsadi va vazifalarga mos innovatsion kompyuter texnologiyalar va axborot metodikalarining qo‘llanilganligi; pedagogik tajriba davomiyligi; tadqiqotning asosiy natijalarining barqaror takrorlanishi va olingan ma‘lumotlarning reprezentativligi; tadqiqot natijalarining to‘g‘ri statistik ishlab chiqilganligi hamda keng approbatsiyasi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, innovatsion texnologiyalar va futbolchilar organizmining jismoniy, funksional holatining turli tomonlarini baholovchi zamonaviy tibbiy-biologik uslublardan foydalangan holda olingan tajriba ma‘lumotlari natijalari yillik tayyorgarlik sikli bosqichlarida ularning maxsus chidamliligi darajasini takomillashtirish muammosini har tomonlama o‘rganishga imkon beradi. 18-19 yoshli sportchilar tayyorgarligini takomillashtirishga yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish uchun ilmiy-nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, olingan ma‘lumotlar va amaliy tavsiyalar trenerlar hamda mutaxassislar tomonidan futbolchilarni tayyorlash jarayonini rejalashtirishda, shuningdek, OTMLlarda bakalavrlar, magistrnlarni o‘qitish tizimida hamda o‘qituvchi va trenerlar tarkibining malakasini oshirish kurslarida ma‘ruza materiallari sifatida qo‘llanilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. 18-19 yoshdagi futbolchilarning harakat faolligini nazorat qilish asosida ularning maxsus chidamliligini takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan nazariy va amaliy takliflar asosida:

yillik tayyorgarlik siklida futbolchilarning maxsus chidamlilik darajasini takomillashtirishga qaratilgan mashg‘ulot yuklamalari dasturlarining optimal variantlarini ishlab chiqish bo‘yicha takliflar “Yillik tayyorgarlikda 18-19 yoshli futbolchilar uchun jismoniy sifatlarni rivojlantirish bo‘yicha yuklamalar taqsimlanishi” nomli dastur mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi

Yoshlar siyosati va sport vazirligining 2023-yil 23-maydagi 04-01/04/20/5037-sonli ma'lumotnomasi). Natijada maxsus chidamlilik va tiklanishlik test ko'rsatkichlari 15,1% ga yaxshilangan;

18-19 yoshli futbolchilarning o'yin vaqti va mashg'ulotlar davomidagi 5 ta tezlik zonasi hamda 5 ta shiddat zonasida faol harakatlanishlari to'g'risida yangi daliliy ma'lumotlar olingan, bu maxsus chidamlilik darajasini baholash va nazorat qilish uslubiyati O'zbekiston futbol assotsiatsiyasining o'quv-mashg'ulot yig'inlarini tashkil qilishda tadbiq qilingan (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligining 2023-yil 23-maydagi 04-01/04/20/5037-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, tajriba guruhi futbolchilarni faol harakatlanish ko'rsatkichlari 4,1% ga, tezlik zonasida 4,3% ga, tezlanishlar soni 28,1% ga, o'yin usullarini bajarish samaradorligi 20,6% ga yaxshilangan;

innovatsion kompyuter texnologiyalardan foydalangan holda 18-19 yoshli futbolchilar maxsus chidamlilik darajasini pedagogik, tibbiy-biologik nazorat qilish metodlaridan foydalanish, o'quv-mashg'ulot jarayonini optimallashtirish va ishlab chiqish bo'yicha takliflar O'zbekiston futbol assotsiatsiyasining o'quv-mashg'ulot yig'inlarini tashkil qilishda joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligining 2023-yil 23-maydagi 04-01/04/20/5037-sonli ma'lumotnomasi). Natijada tajriba guruhi futbolchilari KMO' darajasi 11,3% ga, AAB 13,4 % ga oshirishga imkon bergan;

tayyorgarlik davrida koordinatsion qobiliyatlar, egiluvchanlik va umumiy chidamlilikni rivojlantirishga qaratilgan haftalik siklida olib borilgan mashg'ulot yuklamalarining hajmi va yo'nalishini takomillashtirish va optimallashtirish bo'yicha takliflar O'zbekiston futbol assotsiatsiyasining o'quv-mashg'ulot yig'inlarini tashkil qilishda joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligining 2023-yil 23-maydagi 04-01/04/20/5037-sonli ma'lumotnomasi). Natijada tajriba guruhi futbolchilarini harakat faoliyatlarini tezlanishi va maydondagi harakatlari samaradorligi umumiy 14,2% ga yaxshilangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqotning asosiy natijalari 2 ta xalqaro va 2 respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy-uslubiy ishlar, jumladan O'zbekiston Respublikasi OAK ning doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya qilingan nashrlarida 3 maqola (1 xorijiy va 2 respublika) e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. 145 bet kompyuter matnida tuzilgan bo'lib kirish, to'rtta bob, 12 ta rasm, 20 ta jadval, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va uning zaruriyati, tadqiqotning respublikada fan texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, muammoning o'rganganlik darajasi,

dissertatsiya tadqiqotini bajarilgan oliy ta'lim muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi, dissertatsiyaning maqsadi, vazifalari, ob'yekti va predmeti, tadqiqot usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi, tadqiqotning amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati va ularni amaliyotga joriy qilinishi, aprotatsiyasi va e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha to'liq ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Futbolchilarning harakat faolligini nazorat qilish va jismoniy tayyorgarligini oshirish masalalarining o'rganilganligi”** deb nomlangan birinchi bobida futbol sport turida jismoniy tayyorgarlikning ahamiyati va umumnazariy asoslari ochib berilgan. Futbolchilar uchun maxsus chidamlilikning ahamiyati tushuntirib berilgan, uning futbolda namoyon bo'lish xususiyatlari, futbolchilar maxsus chidamliligining ular musobaqa faoliyati samaradorligi omillaridan biri sifatidagi ahamiyati ko'rsatib berilgan. Maxsus chidamlilik darajasini rivojlantirish va takomillashtirish muammosi bilan vatanimiz mutaxassis olimlaridan: I.A.Koshbaxtiyev, R.I.Nurimov, Sh.T.Iseyev, A.I.Talipdjanov, Sh.Sh.Erkinov, R.T.Ro'zmetovlar hamda xorijiy olimlardan: V.M.Kostyukevich, N. Novokshyenov, A.A. Suchilin, T.S.Taneyev, M.A.Godik, M.A.Abdelkader, J.Bangsbo, W.M.El morsilarning ishonchli metodologik ma'lumotlarida yorqin misollar bilan keltirib o'tilgan.

Adabiyotlarni tahlil qilishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, yangi metodikalarni amaliyotga joriy qilish yuzasidan fikr va mulohazalar o'rganilgan. Shuningdek, 18-19 yoshdagi futbolchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligi, ularning yuqori tezlikda faol harakatlanishlar hajmi va shiddati, sprintlar va tezlanishlar sonini oshirishda jismoniy mashqlarni qo'llashga, ilmiy-metodik jihatdan asoslashga katta ahamiyat qaratgan hamda bob bo'yicha xulosalar berilgan.

Mazkur manbalar tahliliga ko'ra yosh futbolchilar organizm xususiyatlarini e'tiborga olgan holda yuqori malakali futbolchilarning maxsus chidamlilik qobiliyatlarini baholash va rivojlantirish metodlarining ishlab chiqilmaganligi, maxsus chidamlilik qobiliyatlarini rivojlantirish va texnik-taktik harakatlarning o'zaro bog'liqligini tajriba yo'llar bilan amalda isbotlamaganligi asosiy muammo sifatida namoyon bo'ldi.

Mazkur tahlillardagi dolzarb masalalar alohida yondashuv asosida dissertatsiyaning yo'nalishlarini aniqlab olishga yordam beradi.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqotning usullari va tashkil qilinishi”** deb nomlangan ikkinchi bobi, tadqiqotda foydalanilgan pedagogik metodlar, tekshiriluvchilar tavsifi, pedagogik tajribani tashkil etish xususiyatlari va tadqiqotning har bir bosqichida amalga oshiriladigan ishlar tuzilmasi bayon qilingan.

Pedagogik tadqiqotlar uch bosqichda tashkil etildi: Birinchi bosqichda (2017-2018-yillar) mavzuga oid me'yoriy hujjatlar, ushbu yoshdagi futbolchilarni tayyorlash dasturlari, ilmiy-uslubiy adabiyotlar hamda statistik ma'lumotlar qiyosiy tahlil qilingan. Tahlil natijalariga tayangan holda dissertatsiya ishining maqsadi va vazifalari belgilanib, dastlabki tadqiqotlar o'tkazildi.

Ikkinchi bosqichda (2018-2020-yillar) tajriba oldi tadqiqotlari o'tkazildi. Mamlakat chempionatida ishtirok etayotgan jamoalardan tajriba va nazorat guruhi shakllantirilib, ularning mashg'ulot vositalari, yuklamalari hajmi va aynan maxsus chidamlilikni oshirishga qaratilgan mashg'ulotlari, ularning mazmuni, yo'nalishi, musobaqalar natijasi, jismoniy va funksional tayyorgarligi hamda shakllantirish dinamikasi o'rganilib, pedagogik kuzatuv ostiga olingan.

Uchinchi bosqichda (2021-2022-yillar) pedagogik tajriba o'tkazildi. Pedagogik tajribada Toshkent viloyatining FC AGMK va Toshkent shahrining FC Bunyodkor jamoalari tajriba va nazorat guruhi sifatida tanlab olingan. Tadqiqotda futbolchilarning maxsus chidamliligini baholash bo'yicha nazorat testlari olinib qiyosiy tahlili o'tkazilgan. Tajriba guruhi futbolchilarida maxsus chidamlilikni oshirishga qaratilgan mashg'ulot vositalari maxsus ishlab chiqilgan dasturlar yordamida takomillashtirilgan. Tadqiqot so'ngida tavsiya etilgan dasturlarning samaradorligini aniqlash maqsadida qayta testlash amalga oshirilgan, tadqiqotning samaradorligini musobaqa faoliyatiga ta'siri o'rganilgan, olingan ma'lumotlarga asoslangan xulosalar berilgan.

Dissertatsiyaning **“18-19 yoshli futbolchilarning maxsus chidamliligi darajasini tadqiq qilish”** deb nomlangan uchinchi bobida futbolchilarda maxsus chidamlilikni rivojlantirish muammosi yuzasidan mutaxassislarining anketa so'rovi natijalari tahlili berilgan; 18-19 yoshli futbolchilarda funksional va maxsus chidamlilik darajasi aniqlangan va turli miqyosdagi o'yinlarda futbolchilarning mashg'ulot yuklamalari va musobaqa faoliyati tahlil qilingan.

Anketa so'rovi tahlili shuni ko'rsatdiki, 18-19 yoshli futbolchilarda maxsus chidamlilik darajasini rivojlantirish muammosi bo'yicha trenerlarning fikr-mulohazalari bo'lindi 57,1% trener futbolchilarning maxsus chidamlilik darajasini oshirish ustida faqat tayyorgarlik davrida mashg'ulotlar o'tkazish mumkin deb hisoblaydi. 65,7% mutaxassislar fikricha, futbolchilarning maxsus chidamlilik darajasi musobaqa davrida, faqat taqvim o'yinlarida qatnashayotib oshirish mumkin. 62,8% murabbiy shunday fikrdaki: “musobaqa davrida faqat maxsus mashqlardan foydalanayotgan holda maxsus chidamlilikni takomillashtirish ustida ishlash mumkin”. Bu dalillar shuni anglatadi, so'ralgan trenerlarning uchdan bir qismidan ko'prog'i futbolchilarning jismoniy sifatlarning rivojlantirish metodikasi, aynan futbolchilarning maxsus chidamliligini rivojlantirish uchun qo'llaniladigan maxsus va nomaxsus vositalar nisbatlari to'g'risida unchalik to'g'ri tushunchaga ega emas.

Nomaxsus vositalardan foydalanib, lokal mushak guruhiga yoki sportchi organizmi tizimiga tanlab ta'sir ko'rsatish va mashg'ulot yuklamasining individuallashtirish mumkin, ularning ustunligi shundadir.

O'yin mashqlari hisobiga maxsus chidamlilikni rivojlantirish o'ta muammoli bo'lib, murabbiy o'yin mashqida yuklamani bir tekis taqsimlashga qiynaladi va mashg'ulot vazifasini hamma futbolchilar tomonidan bir xil darajadagi shiddat bilan bajarilishga erisha olmaydi. Futbolchilarning maxsus chidamliligini rivojlantirish uchun harakat yuklamalarni oqilona taqsimlash, balki qo'llaniladigan vositalar va metodlarining xilma-xil bo'lishini ta'minlash, buning uchun esa

nomaxsus mashqlardan foydalanish zarur. Bu vositalardagi yuklamalarni tanlab ta'sir ko'rsatish orqali mashg'ulot samarasini oshirish mumkin.

2019-yil chempionat arafasida futbolchilar maxsus chidamliligining rivojlanish darajasini tahlil qilish uchun yoshlar jamoalari o'rtasida mamlakat chempionatida qatnashuvchi futbolchilarda "Polar Team Pro" innovatsion monitor va "Micro Gate" elektron sekundomerlari tizimi yordamida test sinovlari o'tkazildi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Chempionati boshlanishidan oldin 18-19 yoshli futbolchilar maxsus chidamliligining rivojlanish darajasini testlash natijalari

№	Jamoalar	7x50 m ga yugurish (s)		Yo-yo testi (m)	
		Futbolchilar soni	$\bar{X} \pm \sigma$	Futbolchilar soni	$\bar{X} \pm \sigma$
1	Nasaf	22	62,8 ± 1,6	22	1260 ± 42
2	Buxoro	26	63,5 ± 2,2	26	1140 ± 64
3	Metallurg	22	65,3 ± 1,3	22	1020 ± 40
4	So'g'diyona	24	63,6 ± 1,4	24	1040 ± 82
5	Surxon	24	63,7 ± 2,2	24	1060 ± 62
6	AGMK	24	64,4 ± 1,8	24	1240 ± 20
7	Qo'qon-1912	25	63,2 ± 1,6	24	1080 ± 84
8	Lokomotiv	23	64,3 ± 1,5	23	1040 ± 24
9	Navbahor	25	62,5 ± 2,4	24	1180 ± 60
10	Paxtakor	24	62,9 ± 1,7	24	1180 ± 44
11	Bunyodkor	24	64,1 ± 2,2	24	1220 ± 20
12	Andijan	24	64,3 ± 2,4	24	1060 ± 46
13	Dinamo	22	62,2 ± 1,4	22	1180 ± 64
14	Qizilqum	23	65,4 ± 1,7	23	1120 ± 86
Jami		332	63,6 ± 1,8	330	1130 ± 20
Model ko'rsatkich			60,0		1600


Ko'rinib turibdiki, tezlik chidamliligi darajasini testlashda Superliga jamoalari yoshlar tarkibining 332 nafar futbolchisi ishtirok etdi. 7x50 m.ga mokisimon yugurishda o'rtacha ko'rsatkich 63,6±1,8s.ni tashkil etdi. Bu shundan dalolat beradiki, ko'pchilik futbolchilarda chempionat boshlanishidan oldin tezlik chidamliligi darajasi yetarlicha yuqori bo'lmagan. Ushbu yosh uchun model ko'rsatkich 60 s ga teng. Ushbu me'yorda eng yaxshi qiymatlar "Nasaf" jamoasi futbolchilarida -62,8±1,6 s va "Dinamo" jamoasi futbolchilarida qayd qilindi - 62,2±1,4 s yomon ko'rsatkichlar "Qizilqum"- 65,4±1,7 s va "Metallurg" jamoalari futbolchilarida kuzatildi -65,3±1,3 s.

"Yo-Yo" testda (o'zgaruvchan oraliqni tiklanuvchanlik) 330 nafar futbolchi qatnashdi. O'rtacha natija 1130±20 m. ga teng bo'ldi, bu yosh uchun model ko'rsatkich 1600 m. ni tashkil etdi. Eng yaxshi natija quyidagi jamoalarda-"Nasaf"-1260±42 m, "AGMK" 1240±20 m, "Bunyodkor" 1220 ± 20 m,

“Navbahor”- 1180 ± 60 m, “Paxtakor”- 1180 ± 44 m. Yomon natija esa “Metallurg”- 1020 ± 40 m va “Sug‘diyona”- 1040 ± 82 m futbol jamoalari futbolchilarida aniqlandi.

Pedagogik testlashda olingan ma’lumotlar shundan dalolat beradiki, 18-19 yoshli futbolchilarning maxsus chidamlilik darajasi model qiymatlariga mos emas.

18-19 yoshli Superliga jamoalari futbolchilarning nafas olish tizimi darajasini baholash uchun, “CORTEX Metalyzez 3B-R2” gaz analizatori, yordamida tekshiruv o‘tkazildi. Tekshiruv dasturi 2-bobda batafsil yoritilgan (1-rasmga qarang).



1-rasm. 18-19 yoshli futbolchilarda tashqi nafas olish funksiyasini baholash

Ko‘rinib turibdiki, futbolchilarda O‘TS $5,15 \pm 0,18$ l. ni tashkil qilib bu o‘rtacha ko‘rsatkich hisoblanadi. Bir daqiqa ichida tezlashtirilgan nafas chiqarish hajmi (TNCHH1) $4,14 \pm 0,11$ l va yarim daqiqa ichida tezlashtirilgan nafas chiqarish hajmi (TNCHH 0,5) $3,59 \pm 0,12$ l ni tashkil qildi. Tekshiruv natijalari shuni aniqlab berdiki, 86% futbolchi me’yor atrofidagi tashqi nafas olish ko‘rsatkichga ega. 14% futbolchida qo‘shimcha tadqiqotlarni taqozo etuvchi ayrim o‘zgarishlar qayd qilindi (hamma bronxlar darajasida biroz obstruksiya, restriksiyaning boshlang‘ich darajasi belgilari va h.k.).

Futbolchilarda maxsus chidamlilikning past darajasi funksional tizimlarning yetarli darajada rivojlanganligiga bog‘liq. Maxsus chidamlilik darajasi ko‘rsatkichlaridan biri futbolchilar tana tarkibi hisoblanadi. Superliganing 18-19 yoshli futbolchilarini morfafunksional ko‘rsatkichlari tekshiruvdan o‘tkazildi. Jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari tahlili 2-jadvalda berilgan.

2- jadval

Superliga jamoalarining 18-19 yoshli futbolchilarini jismoniy tayyorgarligi ko'rsatkichlari ($\bar{X} \pm \sigma$) (n=280)

Ko'rsatkichlar	Joylashuv			
	Darvozabonlar (n=28)	Himoyachilar (n=84)	Yarim himoyachilar (n=112)	Hujumchilar (n=56)
Tana uzunligi (sm)	180,6±3,9	179,4±4,6	177,6±8,8	173,7±6,6
Tana vazni (kg)	75,8±4,9	71,3±4,8	65,4±3,6	62,9±3,9
PWC ₁₇₀ , kg m/min	1018±117	1117±107	1235±96	1022±134
PWC _{170/vazn} kg m/min/kg	13,8±1,4	16,7±1,2	19,1±1,0	16,2±1,7
KMO', l/min	2,07±0,20	2,33±0,18	2,38±0,16	2,18±0,23
KMO'/vazn, ml/min/kg	39,5±2,2	41,5±1,9	43,7±1,6	40,2±3,7
AAB (KMO' ga nisbati % da)	69,5	71,3	78,4	69,7

Izoh: KMO'- Kislородni maksimal o'zlashtirish , AAB-Anaerob almashinuv bo'sag'asi

KMO' va KMO'/vazn ko'rsatkichlari aniqlash natijalari shuni namoyon qildiki, jismoniy ishchanlik qobiliyatining (PWC_{170/vazn}) nisbiy kattaligi yarim himoyachilarda (19,1±1,0 kgm/min/kg) boshqa chiziq o'yinchilariga nisbatan ishonchli tarzda yuqori (P≤0,05). Organizm aerob ish unumdorligining (KMO') mutloq ko'rsatkichlari statistik jihatdan himoyachilarda 2,33± 0,18 l/min va yarim himoyachilarda ko'proq – 2,38±0,16 l/min va hujumchilarda- 2,18± 0,23 l/min (P≤0,05) hamda darvozabonlarda kamroq – 2,07±0,20 l/daq. Aniqlanishicha, tekshirilayotgan sportchilarda AAB kattaligi o'rtacha 72,2% ga teng, yuqori malakali futbolchilarda YUQS maks 90% ga teng. 76% futbolchilar AAB ning past darajasiga va 24% futbolchilar o'rta darajasiga ega.

18-19 yoshli futbolchilar organizmiga aerob yuklama har doim yuqori, tashqi nafas olish tizimini jiddiy rivojlantirishni taqozo etadi. Sport natijasiga erishishda O'TS katta ahamiyatga ega. Uning kattaligi o'pkada havo almashinuvi yuzasi o'lchamini aks ettiradi. U qancha ko'p bo'lsa havo almashinuvi shuncha unumli va metabolizm shuncha faol bo'ladi. O'TS ko'krak qafasi o'lchami va harakatchanligi, shuningdek, nafas olish mushaklarining rivojlanganligi bilan aniqlandi.

Mashg'ulot jarayoni samaradorligini oshirish uchun tayyorgarlikning barcha bosqichlarida yuklamalarning nafaqat qo'ydagi parametrlari: ixtisoslashganligi, yo'nalishi, murakkablik va kattaligini inobatga olish, balki organizm turli xil tizimlarining javob reaksiyasi miqdoriy ko'rsatkichlarini oldindan ko'ra bilish lozim. Shu sababli yillik tayyorgarlik siklining turli bosqichlarida 18-19 yoshli futbolchilar organizmi holati dinamikasini o'rganish qiziqish uyg'otadi, u interval kardiografiya metodi yordamida amalga oshirildi.

18-19 yoshli futbolchilarda vegetativ, nafas olish va yurak-qon tomir tizimlari holatini o‘rganish uchun “Cardi” kompyuter dasturi yordamida tayyorgarlik davrining turli xil davomiyligidagi mikro sikillarda tadqiqotlar o‘tkazildi. Tekshiruvlar maxsus chidamlilikni rivojlantirishga qaratilgan yuklamalar bajarilgandan keyin o‘tkazildi.

Nisbatan tinch holatda futbolchida 100 ta yurak sikli yozib olindi. Keyin u 30 ta o‘tirib-turishlardan iborat standart yuklama bajardi va darhol yana 100 ta yurak sikli yozib olindi. Olingan natijalar 3-jadvalda berilgan.

3-jadval

Tayyorgarlik davri mikrosikillarda 18-19 yoshli futbolchilar yurak-qon tizimining tiklanish ko‘rsatkichlari dinamikasi (%), (n=65)

Parametrlar	№	Ko‘rsatkichlar	1-kun sikl	2-kun sikl	3-kun sikl
Standart yuklamaga reaksiya	1	Yuklamaga noadekvat reaksiya	86,3	81,8	63,6
	2	Moslashish imkoniyatlarini pasayishi	81,8	77,3	63,6
	3	Tiklanish jarayonlarini sekinlashishi	81,8	68,1	59,0
	4	Adekvat reaksiya	13,7	18,2	36,4
Ishga funksional tayyorgarlik darajasi	5	Tomir urushi 150 – 160 ud/min	77,3	68,1	63,6
	6	Tomir urushi 161-170 ud/min	22,7	27,2	31,9
	7	Tomir urushi 170 ud/min dan	-	4,5	4,5

Ko‘rinib turganidek, tayyorgarlik davrining mikrosikli 1-kunda anaerob - glikolitik yo‘nalishdagi yuklamadan so‘ng 86,3% futbolchilarda: yurak-qon tomir, nafas olish va vegetativ tizimlar tomonidan standart yuklamaga noadekvat reaksiya qayd etildi. 81,8% futbolchilarda moslashish imkoniyatlarining pasayishi va tiklanish jarayonlarining sekinlashishi kuzatildi, faqat 13,7% futbolchida reaksiya adekvat bo‘ldi. Bunda ishga funksional tayyorlik darajasi tomir urushi daqiqasiga 150-160 zarba bo‘lganda 77,3% futbolchida, tomir urushi daqiqasiga 160-170 zarbadan 22,7% o‘yinchida qayd etildi.

Shunday qilib, o‘tkazilgan tadqiqot shuni aniqlash imkonini berdiki, anaerob-glikolitik yo‘nalishdagi yuklamadan so‘ng 18-19 yoshli aksariyat futbolchilarda tiklanish jarayoni 48 soatdan ko‘proq vaqt davom etadi. Bu shundan dalolat beradiki, ko‘pchilik futbolchilarda maxsus chidamlilik darajasi yetarlicha yuqori emas.

Aniqlanishicha, “AGMK” jamoasining 18-19 yoshli futbolchilarida tayyorgarlik davri davomiyligi 77 kundan iborat bo‘lib, u to‘rtta bosqichini o‘z ichiga oladi: kirishtiruvchi (12 kun); umumiy tayyorgarlik (28 kun); maxsus-tayyorgarlik (27 kun); musobaqa oldi (10 kun).

4-jadvalda jamoa tomonidan tayyorgarlik davrida bajarilgan yuklamaning asosiy parametrlari berilgan.

4- jadval

“AGMK” jamoasining 18-19 yoshli futbolchilarida tayyorgarlik davrida yuklamalarning yo‘nalishi bo‘yicha taqsimlanish


Ko‘rsatkichlar	Bosqichlari				Jami
	1	2	3	4	
Mashg‘ulot kunlari	12	28	27	10	77
Mashg‘ulotlar soni	11	48	44	10	113
O‘yinlar soni		4	4	2	10
Yuklama hajmi (min)	660	1080	1020	860	3620
Yo‘nalishi					
Anaerob-alaktat		40	40	120	200
Anaerob-glikolitik		90	150	80	320
Aerob-anaerob	220	650	790	620	2280
Aerob	440	300	40	40	820

Izoh: bosqichlar -1-kirishtiruvchi, 2- umumiy tayyorgarlik; 3-maxsus tayyorgarlik; 4- musobaqa oldi.

Tayyorgarlik davrida 113ta mashg‘ulot hamda 10 ta nazorat o‘yinlari o‘tkazildi. Yuklamalar yo‘nalishlari bo‘yicha quyidagicha taqsimlanadi: anaerob-alaktat

- 200 min; anaerob-glikolitik- 320 min; aralash-2280 min; aerob-820 daq.

Ko‘rinib turibdiki, vaqtning katta hajmi (63%) aralash yo‘nalishdagi yuklamalarga to‘g‘ri keladi, anaerob-alaktat yo‘nalishidagi yuklamalarning xususiy hajmlari umumiy vaqtga nisbatan 5,5% ni; anaerob-glikolitik yo‘nalishdagi yuklamalar 8,8% ni va aerob yuklamalar 22,6% vaqtни tashkil etdi.



2-rasm. 18-19 yoshli futbolchilarda tayyorgarlik davridagi yuklamalarning yo‘nalishi bo‘yicha nisbatlari

Yuklamalarning bunday taqsimlanishi bizningcha, o‘zini oqlamaydi, chunki tayyorgarlik davri yuklamalari rejalashtirishda asosiy e’tibor aralash yo‘nalishdagi yuklamalarga qaratilgan. Bunday rejalashtirishda futbolchining jismoniy qobiliyatlarini tanlab rivojlantirish qiyin, chunki aralash yo‘nalishdagi yuklamalar asosan saqlab turuvchi xususiyatga ega.

5-jadval

“AGMK” jamoasi 18-19 yoshli futbolchilarida umumiy tayyorgarlik davrining haftalik siklida yuklamalarni taqsimlanishi

Sikl kunlari	Yo‘nalishi	Davomiyligi (min)	Kattaligi
1	Aerob (umumiy chidamlilik)	45	kichik
2	Aerob TTM (umumiy chidamlilik)	70	kichik
	Aralash, TTM	70	o‘rta
3	Aerob (umumiy chidamlilik)	70	o‘rta
	Aralash (chidamlilikni hamma turlari)	70	o‘rta
4	Kuch trenajyorlari	60	o‘rta
	Aerob, TTM	60	o‘rta
5	Aerob (umumiy chidamlilik)	70	o‘rta
	Aralash, TTM	70	o‘rta
6	Nazorat o‘yin	70	katta
7	Damolish, tiklanish mashqlari		

Izoh: TTM-texnik- taktik mashg‘ulotlar.

Ko‘rinib turibdiki, haftalik siklda asosan aerob yo‘nalishdagi, 45 dan 70 daqiqagacha davom etuvchi yuklamalar rejalashtirilgan.

Yuklamaning bunday taqsimlanishi shundan dalolat beradiki, trener asosan umumiy chidamlilikni rivojlantirish uchun yuklamalarni rejalashtirgan. Bu sport nazariyasi talablarga javob beradi, tayyorgarlik davrida barcha jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun asos yaratiladi.

Ma’lumki, maxsus-tayyorgarlik bosqichida “zarbdor” mikrosikllar o‘tkaziladi. Ularga xos bo‘lgan shiddat shuki, bu mikrosiklda sportchi organizmining moslashish imkoniyatlari tugaydeganda o‘rta hajmdagi va yuqori shiddatli mashg‘ulot yuklamalari bajariladi. Zarbdor mikrosikllar tayyorgarlik davrining asosiy mazmunini tashkil qiladi. Ayrim hollarda ularni musobaqa davrida ham yo‘llash mumkin. Bu mikrosikllardan shiddatli mashg‘ulot ishi olib borilishi kerak.

Biroq kuzatuvlarning ko‘rsatishicha, bu bosqichda haftalik mikrosiklda faqat katta hajmdagi bitta mashg‘ulot yuklamasidan foydalanildi. 10 ta mashg‘ulotlardan:


2 tasi kichik, 7 tasi o‘rta va 1 tasi katta hajmdagi yuklamalarni tashkil etdi. Bu sport nazariyasi yuklamalarini rejalashtirishga doir talablariga mos kelmaydi.

Ko'pgina mutaxassislar bu davrda haftalik mikrosikl tuzilmasida turli xil "organlar" va "tizimlarining" funksional holati avvalgi mashg'ulotdan to'liq tiklanishga ulgurmagan sharoitida mashg'ulotlardan foydalanishni taklif qilingan. Ularning fikricha, to'liq tiklanishga ulgurmagan sharoitda amalga oshiriladigan bir nechta (2-3, balki ko'proq) mashg'ulotlar samarasini umumlashtirish lozim. Hozirgi paytda sport amaliyotida ko'p sonli mashg'ulotlar uchun "umumlashtirish samarasi" keng tus olmoqda.

Bu davrda maxsus chidamlilik poydevori quriladi. Odatda, buning uchun maxsus va nomaxsus vositalardan foydalangan holda tanlab yo'naltirilgan mashg'ulot o'tkaziladi.

Bu tayyorgarlik bosqichida nomaxsus vositalar juda samaralidir. Nomaxsus mashqlardan foydalanish mashg'ulot mashqi yuklamasini individual tarzda me'yorlashga mashg'ulot yuklamasining individual parametrlarini tanlab olishga imkon beradi .

Maxsus vositalarni qo'llashdagi asosiy omil shundaki, o'yin mashqlarining hajm va shiddatini belgilash asosida maxsus chidamkorlikni takomillashtirish hisoblanadi. Ayniqsa yuqori shiddatda kvadratlar 4x4, 8x8 o'yinlarini yuqori shiddat zonalarida bajarish imkoniyatlar kengaytirildi (3-rasmga qarang).



3-rasm. Maxsus chidamlilik darajasini va texnik-taktik mahoratni oshirishga yo'naltirilgan vositalar kompleksi

Yetakchi jamoalar amaliyotida bu davrda bir kunda ikki martalik mashg'ulotlardan foydalanish kuzatiladi. 18-19 yoshli futbolchilarni tayyorlashda esa haftalik mirkosiklda atiga ikki bor ikki martalik mashg'ulotlar o'tkazilgan.

Shunday qilib, tayyorgarlik davridagi mashg'ulot yuklamalari tahlili shuni ko'rsatadiki, asosan aralash yo'nalishdagi kichik va o'rta kattalikdagi yuklamalar qo'llanilgan. Tanlab yo'naltiriladigan yuklamalardan iborat mashg'ulotlar juda kam bo'lgan.

Tayyorgarlik davrini rejalashtirishda bunday yondashuv sport mashg'uloti nazariyasi va metodikasining qat'iy qonuniyatlarini buzadi. Birinchidan, mashg'ulot yuklamalari maksimal bo'lishi kerak bo'lgan paytda ularning muqarrar pasayishi sodir bo'ladi natijada rejali, ba'zan esa sakrashsimon keladigan moslashish o'rniga organizmning muhim funksional tuzumlarining dezadaptatsiya belgilari kuzatiladi.

Ikkinchidan, yosh futbolchilarning mashg'ulot jarayonida maxsus chidamlilikni rivojlantirishga yo'naltirilgan yuklamalar deyarli kam qo'llaniladi.

Maxsus chidamlilikni muhimligi uni takomillashtirish ustida olib boriladigan ishga musobaqa davrini asosiy vazifasi sifatida qarashga imkon beradi. Ushbu holda tayyorgarlik maqsadi hujum harakatlari tezligini oshirish bo'ladi. Maqsad va asosiy vazifa bir-biri bilan o'zaro bog'liq, maxsus chidamliliksiz yaxshi sport natijasini ko'rsatish mumkin emas, u o'z navbatida hujum harakatlari tezligiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq, chunki aynan musobaqa mashqi tezligi sport natijasiga erishishni belgilab beruvchi omil hisoblanadi.

Shuning uchun 18-19 yoshli futbolchilar tayyorgarligini musobaqa davridagi har xil kattalikdagi yo'nalishga ega yuklamalar nisbatini qarab chiqamiz.

Dissertatsiyaning **“18-19 yoshli futbolchilarning maxsus chidamliligini takomillashtirish dasturlarini tajribada asoslash”** deb nomlangan to'rtinchi bobida musobaqa faoliyatining yosh futbolchilar maxsus chidamliligi darajasi bilan o'zaro bog'liqligi tahlil natijalariga ko'ra 18-19 yoshli futbolchilarning maxsus chidamliligini rivojlantirish hamda takomillashtirish dasturlarining nazariy va tajribada asoslanishi berilgan. “Dasturlar” ni ishlab chiqishdan oldin 18-19 yoshli futbolchilarning harakat faolligi hamda texnik-taktik harakatlari samaradorligi tahlil qilindi. O'zbekiston chempionatida futbolchilarning o'yinlari davomida ma'lumotlar tahlil qilib chiqildi.

Yoshlar jamoalari o'rtasida O'zbekiston chempionatida ishtirok etayotgan “AGMK” jamoasining 18-19 yoshli futbolchilarini “Polar Team Pro” innovatsion monitor tizimi yordamida faolligi harakat tahlili qilindi (6- jadvalga qarang).

O‘zbekiston chempionati o‘yinlarida “AGMK” 18-19 yoshli futbolchilarining faol harakatlanishlar ko‘rsatkichlari (n=5)

Jamoalar	Umumiy masofa	1-tezlik (1,00-11,99 km/soat zonasidagi masofa (m), (%))	2-tezlik (12,00-16,99 km/soat zonasidagi masofa (m), (%))	3-tezlik (17,00-21,99 km/soat zonasidagi masofa (m), (%))	4-tezlik (22,00-26,99 km/soat zonasidagi masofa (m), (%))	5-tezlik (27,00 km/soat zonasidagi masofa (m), (%))
Nasaf	92220	58830 (64)	20855 (23)	8667 (9,3)	3047 (3,3)	821 (0,89)
Paxtakor	94798	61058 (64)	21129 (22)	8667 (9,1)	3071 (3,2)	873 (0,92)
Bunyodkor	94272	63215 (67)	18936 (20)	8331 (8,8)	3049 (3,2)	741 (0,78)
Lokomotiv	96063	60572 (63)	21133 (22)	9818 (10,2)	3598 (3,7)	942 (0,98)
Navbahor	80405	50657 (63)	18469 (23)	7595 (9,4)	2987 (3,7)	697 (0,86)

Izoh: AGMK jamoasi 5 ta jamoaga qarshi natijalari va qavs ichida har bir tezlik zonasiga futbolchilarning faol harakatlanishlarining foizlardagi nisbati ko‘rsatilgan

Ko‘rinib turibdiki, eng katta hajmdagi faol harakatlanishlar 1 dan 16,99 km/soat tezlik zonasida amalga oshirilgan — 86%. Anaerob-glikolitik rejimni ifodalovchi tezlik zonasi chegarasidagi harakatlanishlar hajmi ($V=22,0-26,99$ km/soat) “AGMK” futbolchilarida atigi 3,2%-3,7% ni tashkil qildi. Bu ko‘pchilik 18-19 yoshdagi futbolchilarda maxsus chidamlilikning rivojlanish darajasi yuqori emasligidan dalolat beradi.

Shunday qilib, musobaqa faoliyati tahlili natijalari shuni ko‘rsatadiki, 18-19 yoshli futbolchilarda maxsus chidamlilik darajasi yetarlicha yuqori emas.

Olingan dalillarni inobatga olib, 18-19 yoshli futbolchilarda maxsus chidamlilik darajasini rivojlantirish va takomillashtirish dasturlari ishlab chiqildi va pedagogik tajriba o‘tkazildi. Tajribadan oldin ikkala guruh futbolchilarida maxsus chidamlilik darajasi va organizmni turli tizimlarining funksional holatini aniqlash maqsadida chuqur tekshiruv o‘tkazildi. Bu tekshiruv natijalari ko‘rsatishicha, ikkala guruh tayyorgarlik darajasiga ko‘ra bir xil bo‘ldi. Tekshiruv o‘tkazilgandan so‘ng nazorat guruhi futbolchilari O‘FA tomonidan tavsiya qilingan dastur bo‘yicha mamlakat birinchiligida qatnashish uchun tayyorgarlikni boshladilar.

18-19 yoshli futbolchilarning maxsus chidamliligi darajasini oshirish uchun O‘zbekiston futbol Assotsiatsiyasi (O‘FA) tomonidan tavsiya etilgan dasturidan biz tomonimizdan ishlab chiqilgan tajribaviy “Dasturlar”ning asosiy farqi quyidagilardan iborat bo‘ldi:

- yillik tayyorgarlik siklida 18-19 yoshli futbolchilar mashg‘ulot jarayoni yuklamalarini rejalashtirishda kuch, tezlik-kuch yo‘nalishidagi va maxsus chidamlilik yuklamalarning xususiy hajmlarini 1,5-2,5 marta ko‘paytirishga asosiy urg‘u berildi;

- kuch yoʻnalishidagi yuklamalardan foydalanish hisobiga mushak tuzilmasi (miofibrillar va mitoxondritlar) hosil qilindi, keyin esa aerob va anaerob-glikolitik yuklamalar hisobiga maxsus chidamlilik rivojlantirildi;

- aralash yoʻnalishdagi yuklamalar hajmini qisqartirish hisobiga kuch, tezlik-kuch va maxsus chidamlilik yuklamalari oshirildi;

- tayyorgarlik davrida tajriba dasturidagi kuch va tezlik-kuch yoʻnalishdagi yuklamalarning umumiy hajmi 1200 daqiqani tashkil etdi, OʻFA tomonidan tavsiya qilingan dasturda 480 daq. boʻlgan (2,5 barobar koʻpaytirildi);

- tajriba dasturida tayyorgarlik davrida maxsus chidamlilikni rivojlantirishga qaratilgan yuklamalarning umumiy hajmi tavsiya qilingan 215 daqiqadan farqli ravishda 325 daqiqani tashkil etdi (1,5 barobar koʻpaytirildi);

- tajriba dasturida musobaqa davrining birinchi davrasida kuch va tezlik-kuch yoʻnalishidagi yuklamalarning umumiy hajmi 720 daqiqa oʻrniga 1440 daqiqani tashkil etdi. (2 barobar koʻpaytirildi) va maxsus chidamlilik yuklamalarining umumiy hajmi 426 daqiqa oʻrniga 640 daqiqani tashkil qildi (1,5 barobar koʻpaytirildi);

